

KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA TA'MINOT MASALASI VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK TA'MINOTI

Muxtorali Zokirov

Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi

Oybek Raimjonov

FarDU Filologiya fakulteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Kompyuter lingvistikasida keng qo'llanilib kelinayotgan dasturiy hamda lingvistik ta'minot masalasi va frazeologik birliklarning lingvistik ta'minotiga tahlil qilingan.

***Kalit so'zlar:** kompyuter lingvistikasi, dasturiy ta'minot, lingvistik ta'minot, frazeologik birikmalar, iboralar, mobil ilova, lingvistik ta'minoti.*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена проблеме компьютерная лингвистического обеспечения, которое широко используется в компьютерной лингвистике, и лингвистическому обеспечению фразеологизмов.

***Ключевые слова:** компьютерная лингвистика, программное обеспечение, лингвистическое обеспечение, фразеологические сочетания, выражения, мобильное приложение, лингвистическое обеспечение.*

ABSTRACT

This article is devoted to the extent to which phraseological units have been studied in linguistics, and their study from the point of view of computational linguistics remains an important issue.

***Key words:** computer linguistics, phraseological combinations, phrases, mobile application, linguistic support.*

KIRISH

Kompyuter lingvistikasi sun'iy intellekt(tafakkkur)ni yaratishda tirik mavjudotlar va insonlardagi intellektual faoliyati natijasida yuzaga chiqadigan birliklarning matematik va kompyuter modelini tuzuvchi fan tarmoqlaridan biri bo'lib, uning markazida tabiiy tillar ifodalashda matematik modellaridan foydalanish turadi. Bu soha ma'lum darajada tabiiy tillarni qayta ishlash bilan bog'liq holda bir nuqtada kesishadi. Kompyuter lingvistikasi tadqiqotchilarining faoliyati til birliklari ma'lumotlarini qayta ishlash uchun amaliy dasturlar va algoritmlar ishlanmasini yaratish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimizda keyingi yillar davomida kompyuter lingvistikasi muammolariga oid ko'plab ishlar qilinmoqda. O'rni kelganda R.G.Piotrovskiy [2], A.K.Po'latov [10], S.Muxamedova [6], S.Rizayev, A. Rahimov [12], N.Abdurahmonova [13] kabi olimlarning ishlarini alohida ta'kidlash lozim.

Har bir tilni kompyuter lingvistikasi jihatidan algoritmik tasvirlash jarayoni matnni analiz va sintez qilishni talab etadi. Bunda esa "mazmun - matn" muammosi faqat sof lingvistik muammo bo'lib qolmaydi, balki matnni bir qancha logik-matematik interpretatsiya (sharh berish) qilish jarayonini ham taqozo etuvchi murakkab muammo ekanligini belgilab beradi. Qaysiki, yuqoridagi jarayonlarning barchasi matematik mantiq (logika) elementlari bilan aloqada hisoblanadi.

Kompyuter lingvistikasi masalalarining umumiy yo'nalishlarini aniqlash shunisi bilan ahamiyatli, ularning har biri amaliy jihatdan matn muammosiga borib taqaladi. G'arb kompyuter lingvistikasi esa uzoq yillik tadqiqotlarga egaligi, ilmiy jihatdan ishlanganligi bilan ajralib turadi.

Kompyuter lingvistikasi - kompyuter uchun mo'ljallangan lingvistik ta'minot [15, 7]. Z.Xolmanova kompyuter lingvistikasiga bergan yuqoridagi ta'rifiga asoslanadigan bo'lsak, tilshunoslikning kompyuter texnaolgiyalari bilan bog'langan holda yangi bir fan sohasini shakllanishiga zamin yaratgan birlik sifatida "lingvistik ta'minotni" ko'rishimiz mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dasturiy ta'minot bu komputerda ma'lum bir turdagi vazifani bajarish uchun ishlab chiqilgan vosita deb qaraladi. Lingvistik ta'minot esa bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra bu kompyuterda tilshunoslikka oid ma'lum bir turdagi vazifani bajarish uchun ishlab chiqilgan vositadir. N. Abdurahmonovanning "Kompyuter lingvistikasi" darsligida [16] lingvistik ta'minot tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: Lingvistik ma'lumotlar bazasi (ta'minoti) deyilganda, tilga oid barcha ma'lumotlar tushuniladi. Til tuzilishi hamda matnni analiz va sintez qilishning aniq vazifalariga asosan lingvistik ta'minotida quyidagilarning mavjud bo'lishi talab qilinadi: matn – leksik asos, leksema shakl – so'z birikmasi, sintaktik gap strukturalari. Tarjimadan avvalgi tahlil jarayonida uch asosiy ierarxik bosqich amalga oshiriladi: matn-jumla-leksema shakl. Bunda leksemashakl keng ma'noda matndan olingan istalgan segment birlik sifatida qaraladi. Gap va so'z birikmalarining barcha strukturaviy hamda boshqa xususiyatlari leksema shakl tushunchasida ifodalanadi [13, 31].

Lingvistik bilimlar bazasiga quyidagilar kiradi:

- Leksik resurslar:

- Kompyuter lug‘atlari;
- Tezaurus, ontologiya.
- Matniy resurslar:
- Matlarning sohaviy majmuasi;
- Matn korpusi
- Aralash resurslar:
- FrameNet - so‘zlarning ma’lumotlar bazasi.
- Internet resurslar:
- WikiPedia, Wiki-lug‘at, DBPedia.

Yuqoridagilardan kelib chiqib lingvistik ta’minot kompyurer lingvistikasi va tilni o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlab beruvchi lingvistik bilimlar bazasi hisoblanadi.

Dasturiy ta’minot yoki Software bu Komputerda ma’lum bir turdagi vazifani bajarish uchun ishlab chiqilgan vositadir. Bu hisoblash texnikasi vositalari bilan ma’lumotlarni qayta ishlash tizimini yaratish va ulardan foydalanish uchun dasturiy va hujjatli vositalarni yig‘indisi tushuniladi.

Aynan shu dasturiy ta’minotgina kompyuter — “quruq temir” degan atamani yo‘qqa chiqargan. Dasturiy vositalar kompyuter tomonidan qo‘llaniladigan barcha dasturlar to‘plamidir. Ingiliz tilida bu atama software ya’ni „soft“ — yumshoq, „ware“ — „mahsulot“ degan ma’noni bildiradi.

Dasturiy ta’minot 3 guruhga bo‘linadi: 1-Sistema dasturlari (unga turli yordamchi vazifalarni bajaruvchi dasturlar kiradi: Task Manager (Windows OSda mavjut), 2-Amaliy (unga foydalanuvchiga aniq bir foydalanish sohasida ma’lumotlarga ishlov berish va qayta ishlashni amalga oshiruvchi dasturlar, masalan: Microsoft Office, Adobe CC), 3-Uskunaviy dasturlar (bular dasturlash uchun ishlatiladigan dasturlar

Kompyuter lingvistikasining nazariy va amaliy asoslarini shu sohaga oid har qanday birliklarning elektron lug‘atlar bo‘ladimi, mashina tarjimasiga asoslangan dasturlar bo‘ladimi, barchasini tashkiliy jihatlarini ikki qismga bo‘lgan holda berish mumkin. Masalan, mashina tarjimasiga asoslangan dasturlarni birinchi tomonda uning lingvistik baza tomoni tursa, ikkinchi tomonda uning dasturiy ta’minot jihatini e’tiborga olinadi.

Frazeologik birlik (ibora, frazema, frazeologik ifoda) strukturasi va tarkibi barqaror, birikmaning semantik butunligi mavjud, tayyor nutq birligi bo‘lgan va leksik jihatdan bo‘linmaydigan birlik hisoblanadi [18].

Frazeologizmlar mohiyat ehtibori bilan, asosan, so‘zlashuv va badiiy nutq mevasidir. Olamning lisoniy manzarasi yaralishida til sathlarining barchasi ishtirok

etadi. Shunga qaramasdan, olam lisoniy manzarasining yaralishi va aks etishida tilning, ayniqsa, lugʻat boyligi, yaʼni leksik (- frazeologik) sathning alohida oʻrin tutishini taʼkidlash joiz [14, 22].

Ulardagi boshqa uslubga xos chegaralanishlar esa maʼlum muddat keyin yuzaga keladi. Chunonchi, birgina *oʻlmoq* leksemasining maʼnosini anglatadigan yuzga yaqin frazeologizm (evfemizm)lar sinonimik qatorining paydo boʻlishi ularning vazifaviy chegaralanish imkoniyatini tugʻdiradi. Masalan, bu qatorga kiradigan *olamdan oʻtmoq, dunyodan oʻtmoq, omonatini topshirmoq, qulogʻi ostida qolmoq, jon bermoq* soʻzlashuv uslubida ishlatilsa, *vafot etmoq, hayotdan koʻz yummoq, dunyodan koʻz yummoq, hayot bilan vidolashmoq* kabilar ilmiy, ommabop va rasmiy uslublarda uchraydi. *Alloh rahmatiga yoʻl tutmoq, shahodat sharobini ichmoq, dorilfanodan dorilbaqoga rixlat qilmoq* singarilar esa badiiy matnga tegishlidir. Bundan koʻrinib turibdiki, muayyan uslubiy xoslanishlari berilgan frazeologizmlarning taʼlimiy lugʻati dasturning mukammalligini taʼminlovchi manbalardan biri hisoblanadi [3]. Frazeologik birlik (FB) tarkibidagi soʻzlar maʼno jihatdan uygʻunlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi. Koʻpincha maʼnosi bir soʻzga teng va koʻchma boʻladi. Tilshunoslikning iborani oʻrganuvchi maxsus boʻlimi frazeologiya deyiladi.

Istalgan tildagi matnlarni avtomatik tahrir va tahlil qilishda yoki elektron lugʻat tizimi orqali qidiruv berilganda kompyuter xotirasida muayyan lingvistik taʼminot boʻlishi talab qilinadi. Taʼminot asosini esa lingvistik qoidalar va meʼyorlar tashkil etadi. Shuningdek, lingvistik taʼminotdan muayyan tilning lingvistik va filologik lugʻat boyligi ham oʻrin oladi. Shu bois lingvistik protsessorni yaratishda qayta ishlanayotgan tabiiy til haqida yetarli darajada maʼlumotga ega boʻlish talab qilinadi. Bu, oʻz navbatida, lingvistik protsessorning mukammal boʻlishini taʼminlaydi. Oʻzbek tilidagi matnlarni avtomatik tahrir va tahlil qilish dasturining lingvistik protsessorini yaratishda tilshunosga oʻzbek adabiy tilning lingvistik lugʻatlari va grammatik qoidalar jamlamasi zarur boʻldi. [17, 22]

XULOSA

Frazemalar ham soʻz kabi lugʻaviy birlik sanaladi. Tilning lugʻat boyligini tashkil etadi. Frazeologik birliklar sirasiga kiruvchi ibora soʻz birikmasi yoki gap singari nutq jarayonida hosil boʻlmaydi, xuddi soʻz kabi tilda tayyor holda boʻladi. Shu bois Frazeologik birliklar nutq jarayonida yuzaga vhiqadigan hodisasi emas, balki tayyor holda ongda saqlanadgan til hodisasi hisoblanadi. Bu jihat barqaror birikmalarni matnni qayta ishlash, matnning avtomatik tahriri va tahlili, mashina tarjimasini amalga oshiruvchi dasturlarning lingvistik taʼminotida alohida maydonni tashkil etishini namoyon etadi.

Iboraning qismi qat'iy bir qolipga kirib ketganligi uchun uni bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. So'zma-so'z tarjima fikr chalkashligiga olib keladi. Shu bois avtomatik tarjima qilish dastur, mobil ilova va platformalarning lingvistik tahminotini yaratishda ham so'z birikmasi va gap strukturali iboralar bazaga leksik birlik shaklida kiritiladi va o'zga tillarda ularning tarjimasi beriladi.

Frazemalarni kompyuterli modellash tirish quyidagi imkoniyatlarni beradi:
— frazeologik birliklarni avtomatik tahlil qilishni osonlashtiradi;

— matn tarkibida frazeologik birliklarning tarjimasini osonlashtiradi;

— lingvistik protsessorda semantik tarzda so'z yoki jumla identifikatori tarzida tushuniladi;

— lingvokulturologik ahamiyati saqlanib qoladi;

— iboralarning semantik yaxlitligi saqlanadi [17, 25].

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Мухамедов С.А. Статистический анализ лексикоморфологической структуры ўзбекских текстов: афтореф. дисс. канд, филол. наук. — Тошкент, . — 1980
2. Пиотровский Р.Г. Компьютеризация преподавания языков (учебное пособие по спецкурсу). - Л.: 1988.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. — Тошкент: Ўқитувчи, 2001
4. Пулатов А.К., Джураева Н. Разработка формальной модели грамматики узбекского языка // Узбекский математический журнал. — Ташкент, 2002.
5. Пулатов А. Глобаллашув даврида лингвистикага оид муаммолар// Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Т., 2004
6. Мухамедова С. Ўзбек тилидаги ҳаракат феъллари асосида компьютер дастурлари учун лингвистик таъмин яратиш. - Тошкент, 2006. - 143 Б.
7. Мухамедова С. Компьютер лингвистикаси (методик кулланма). - Т., 2007;
8. Abdurahmonova N. Z. Matnlarni kompyuterda ishlash muaommolari: Bitiruv malakaviy ishi. - Toshkent: O'zMU 2009;
9. Abdurahmonova N.Z. Inglizcha sodda gaplami o'zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta'minoti. Magistrlik dissertatsiyasi. -Toshkent- O'zMU, 2011
10. Пулатов А. Компьютер лингвистикаси (дарслик). Тошкент: Академнашр, 2011.
11. Пулатов А, Мухамедова С. Компьютер лингвистикаси (укув кулланма) - Т., 2014;
12. Рахимов А. Компьютер лингвистикаси асослари. — Т.: Akademnashr, 2011.

13. Abdurahmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti Akademnashr, Toshkent – 2018.31-bet
14. Маҳмудов, Н. (2018). Тилнинг сўз хазинаси ва оламнинг лисоний манзараси. *Сўз санъати*, (1), 18-27.
15. Xolmanova Z.T. Kompyuter lingvistikasi; “Asian Book House” nashriyoti. Toshkent – 2020. 7-bet
16. Abdurahmonova N “Kompyuter lingvistikasi ” darslik “Nodirabegim” nashriyoti – Toshkent: 2021
17. Абжалова М.А., Рашидова У.М. Лингвистик таъминотни яратишда фразеологик бирликлар масаласи Компьютер лингвистикаси: муаммо ва ечимлар мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Тошкент, 2021 й. 22-25бет
18. <https://cyberpedia.su/3x7ca2.html>